

# RESPUBLIKAMIZDA TARQALGAN SAVRINJONDOSHLAR OILASI (COLCHICACEAE) GA KIRUVCHI COLCHICUM TURKUMI TURLARI BIOLOGIYASI.

**Ibragimova Sh.Sh.**

JDPI. Stage 1 master

Bu oilaga 47 turkumga mansub, 400 taga yaqin tur kiradi.Ularga ildizpoyali va piyozchali ko'p yillik o'tlar kiradi. Yer yuzida ancha keng tarqalgan. Gullari aktinamorf, ikki jinsli, gulqo'rg'on bo'laklari erkin joylashgan yoki qisman tutashib naycha hosil qiladi. To'pguli poyasining uchida joylashgan.Changchisi odatda 6 tadan, urug'chisi 3 ta mevachabargdan tashkil topgan erkin. pishganda. Mevasi ko'p bargakli ko'sakcha bo'lib hamisha to'sig'idan chatnaydi. O'zbekistonda 2 ta turkumga mansub 3 ta turi o'sadi. Ta'kidlash joizki, Merendera bilan Colchicum turkumlari oldinlari loladoshlar (Liliaceae) oilasi tarkibida bo'lgan. Manzaraligi jihatdan ular alohida o'rinda turadi. Quyida *Colchicum* turkumiga kiruvchi turlar haqida ma'lumot beramiz.[1]

Oq savrinjon - *Colchicum kesserringii*. Tuganak piyozboshli, barglari tasmasimon, ildiz bo'g'zidan chiqqan, Erta bahorda yoki kuzda gullovgchi o't o'simlik. Uning tuganak piyozboshi parda bilan qoplangan. Guli yirik, yakka, ikki jinsli. Gulqo'rg'oni uzun naysimon, sariq, oq, pushti va gilos rangda bo'lib, tagi birikkan. Urug'chisi 6 ta, 3 tasi uzunroq. Zaharli o'simlik.



Oq savrinjon - *Colchicum*.

Oq savrinjondan xalq tabobatida zirqiragan og'riqni qoldirishda qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan. Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida Tyanshan va Pomir-Oloy tog'larining dashtlaridan tortib to yuqori mintaqalarigacha bo'lgan donador tuproqli yerlarida tarqalgan.[2] Sariq savrinjon (*Colchicum luteum Baker*) – juda ham zaharli o'simlik. Xalq tabobatida uning tugunaklaridan bod va yurak xastaliklarini davolashda ishlatalidi. Gullari tarkibida bo'yoq moddalar bor, undan junlarni osmonsimon sariq, sarg'ish yoki asalsimon rangga bo'yashda foydalilaniladi. Qozog'istonning "Qizil kitobi" ga kiritilgan. Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida G'arbiy Tyanshan va Pomir-Oloy tog'lari mintaqalarining quyi qismidan to yuqori qismigacha bo'lgan shag'alli, toshloq, mayda shag'alli qiyaliklarida uchraydi.



Sariq savrinjon (*Colchicum luteum* Baker)

Kesselring savrinjon (*Colchicum Kesselringii*) – O‘rtal Osiyoda kam bo‘lgan endemik o‘simlik. Hayotiy shakli ko‘p yillik, tugunak piyozli o‘t. Tog‘ etaklaridan to yuqori qismigacha bo‘lgan joylarida mayda jins tuproqli va shag‘alli yonbag‘irlarida o‘sadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika bog‘ida 1967-yildan buyon ekib kelinadi. Tabiatda yakka-yakka holda va to‘p-to‘p bo‘lib uchraydi. Gullarining ko‘p yig‘ib olinishi, chorva mollarining ko‘plab boqilishi oqibatida kamayib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga 2009 yil kiritilgan hozirda Chotqol, Zomin, Surxon, Nurota, Hisor qo‘riqxonalarida muhofaza qilinadi.[4]



Kesselring savrinjon (*Colchicum Kesselringii*)

#### Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Hamdamov I. va boshqalar. Botanika. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2009
2. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. – T.: 2010
3. 3.M.Nabihev., T.Odilov., O’Pratov., G’.Shermatov.Qiziqarli botanika. –T.: 1975
4. O’Pratov, A.S.To‘xtayev, F.O.Azimovna . Botanika. –T.: 2003